



An analysis of the literary expression of love and philosophical-moral issues in Ovid's works

Ulugbek KUCHIMOV ¹

ALFRAGANUS UNIVERSITY

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

15 March 2025

Keywords:

Ovid,
elegy,
metamorphosis,
The Art of Love,
rhetoric,
sorrowful elegy.

ABSTRACT

This article discusses the formation of love elegies in Roman literature and the significance of Ovid's creative contribution. Ovid's elegies express the joys and sorrows of love and mythical romance. His works depict the lives and emotional struggles of mythological characters through a realistic and personal approach. The scholarly analysis also covers the contribution of Metamorphoses to the development of world literature, highlighting its profound spiritual, moral, and philosophical aspects.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp44-50>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ovidiy Nazon ijodida ishq-muhabbat va falsafiy-axloqiy masalalarning badiiy ifodasi tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Ovidiy,
elegiya,
metamorfoza,
"Sevgi san'ati",
ritorika,
g'amgin elegiya.

Mazkur maqolada Rim adabiyotida ishqiy elegiyalarning shakllanishi va unda Ovidiy ijodining ahamiyati. Ovidiy elegiyalarida ishqning, afsonaviy muhabbatning shodliklari hamda dardu alamlari kuylanganligi. Ovidiy asarlarida mifologik qahramonlarning hayoti va ishqiy qayg'ularini real va shaxsiy yondashuv orqali aks ettirganligi. "Metamorfozalar" asarining jahon adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi va uning ulkan ma'naviy, axloqiy va falsafiy jihatlarini ilmiy tahlil etilgan.

¹ PhD, Associate Professor, Department of Oriental Philology, ALFRAGANUS UNIVERSITY.
E-mail: u.kochimov@afu.uz

Овидий Назон: художественное отражение любви и философско-нравственных вопросов в творчестве

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Овидий,
элегия,
метаморфоза,
«Искусство любви»,
риторика,
печальная элегия.

В данной статье рассматривается формирование любовной элегии в римской литературе и значение творчества Овидия в этом процессе. В элегиях Овидия воспеваются радости и страдания любви, мифологической и возвышенной. Отмечается, что в произведениях Овидия мифологические персонажи и их любовные переживания отражены с реалистичным и личностным подходом. Также проводится научный анализ вклада произведения «Метаморфозы» в развитие мировой литературы, его огромного духовного, нравственного и философского значения.

KIRISH

Rim adabiyotida o'ziga xos ijodkor sifatida tanilgan Publiy Ovidiy Nazon miloddan avvalgi birinchi asrda taxminan 43-yilda tug'ilgan. Rim imperiyasida lirik shoir sifatida tanilib, dastlab o'zining ishqiy elegiyalari, ijodining keyingi bosqichlarida mifologik dostonlari, axloqiy va falsafiy asarlari bilan o'z nomini manguga muhrladi. Ovidiy Rimning "Kumush asri" deb ataluvchi davrida ijod qilib, jahon adabiyotini estetik boyitishga xizmat qilgan adibdir.

Ovidiy bolaligini Marsel shahrida o'tkazdi. Bu shahar muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, turli madaniyatlar to'qnash keladigan hudud hisoblangan. Uning oilasi o'z darining boy va badavlat xonadonlaridan biri edi. Oiladagi to'kis hayot uning yaxshi ta'lim olishiga imkon yaratdi. U yoshligidan notiqlik san'ati (ritorika)ga qiziqadi va uni egallash uchun notiqlik maktabida ta'lim oldi. Ovidiy notiqlikni o'rganish jarayonida badiiy adabiyotga, asosan she'riyatga muhabbat qo'yadi. O'z davrining mashhur shoirlari bo'lgan Korneliy Gay va Parfeniydan poeziya sirlarini o'rganadi.

METODOLOGIYA

Jahon adabiyotshunosligida Ovidiy ijodiga qiziqish shoir hayotligi davridan boshlangan va hozirgi kunlargacha davom etmoqda. Uning ijodi keyingi Ovrova va jahon adabiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan buyuk shoirlardan. Shuning uchun biz mazkur maqolada Ovidiy ijodining o'ziga xos xususiyatlari, elegiya janriga qo'shgan hissasi, ishqiy, g'amgin elegiyalari va "Metamorfozalar" asarini biografik, struktural, qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan foydalangan holda yechimini topishga harakat qilamiz.

ADABIYOT SHARHI

Adabiyotshunoslikda, xususan, "Antik adabiyot tarixi" (Alimuhamedov A. T. 1975. B. 358.), "Antik adabiyotdan xrestomatiya. Rim adabiyoti". (Oybek. T.1980. B.155.), "Universal Models in Ovid's Metamorphoses". (Gallin C. Cambridge.1998. p 34.), "Ovid's Metamorphoses and the Traditions of Augustan Poetry".(Peter E. Knox. Cambridge.1986.p 112.),

"A Commentary on Ovid's Metamorphoses". (Barchiesi A. Frontmatter, Kenney EJ, Reed JD. Cambridge. 2024. p 58.),

https://royallib.com/book/nazon_publiy_ovidiy/nauka_lyubvi.html.

NATIJALARZ

Ovidiy Nazon ilk ijodini ishqiy elegiyalar yozishdan boshladi va "Amores" (lot) "Ishqiy elegiyalar" asarini yozdi. Ishqiy elegiyalar yozgan adiblar bu janrni ellinizm (yunon) adiblari ta'sirida yaratgan bo'lsalar-da, lekin Rim an'nalarini saqlagan holda o'ziga xos milliy elegiyalarni yaratdilar.

Rim elegiyalari hokimiyat tepasiga Oktavian Avgust kelib, yakka hokimlik, mutloq gegimonlikni o'rnatgandan so'ng mavzu jihatdan tubdan o'zgardi. Sababi imperator siyosatini qoralashdan chuchigan shoirlar ijtimoiy va siyosiy mavzulardan ko'ra o'z tuyg'u va ichki kechinmalarini kuylashni afzal bildilar. Bu tuyg'ularni kuylashda "Ishqiy elegiyalar" janri ularga qo'l keldi. Bu janrda ishqning, afsonaviy muhabbatning shodliklari hamda dardu alamlari kuylandi. Ular o'zlarining ruhiy halovatini sevgi, muhabbat va uning hijron alamlaridan axtardilar. A.Alimuhamedov yozganidek: "Muhabbat masalalariga hayotning asosiy mazmuni deb qaragan shoir o'zining ehtiroslarini hech qachon yengil va havoyi ermaklar bilan bulg'amaydi, uchragan mahbubalarga sevgisini hadiya qila bermaydi: uning ishq sadoqat va barqarorlikning timsolidir. Biroq jo'shqin sevgida murodga yetish hodisalarini elegiyanavis shoirlar ijodida juda kam uchratamiz"[1:358]. Shoirlar yaratgan mahbubalar o'zlarining yasama ishvalari, bevafoqligi, ta'magirligi va soxta muhabbatlari bilan oshiq qalbiga ko'p ozorlar beradi. Hijron dardi, bevafo mahbubaning sitamlaridan nola qilish, ishq o'tida yongan oshiq shoirlarning asosiy mavzusi edi.

Ovidiy o'z davrida Rim adabiy jarayonida katta hurmatga sazavor bo'lgan, hatto Avgust davrining madaniy qiyofasini belgilashga yordam berdi.

U "Sevgi san'ati" ("Ars Amatoria") asarida ishqiy munosabatlarni yumor va ishqiy intriga asosida tasvirladi. Ovidiy ishqiy va g'amg'in elegiyalarni yangi estetik darajaga olib chiqdi. Uning yumor va dramatik xususiyatga asoslangan uslubi elegiya janrini boyitdi va uni klassik adabiyotning ajralmas qismiga aylantirdi. Shuningdek, Ovidiy o'zining ishqiy elegiyalarida muhabbatni bir nechta qirralarda tadqiq qiladi. Bu qirralar nafaqat romantik his-tuyg'ular, balki muhabbat, xiyonatlar va real hayot muammolarini ham qamrab oladi. Uning asarlari inson tabiati va munosabatlar psixologiyasini chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Ovidiyning ishqiy elegiyaga dramatismni olib kirishda katta hissa qo'shgan asarlaridan biri "Qahramon ayollar" asaridir. U rivoyat shaklida yozilgan bo'lib, mifologik ayollarning ishqiy iztiroblari va ularning yozgan maktublari orqali ishqiy tuyg'ularni juda ta'sirchan tasvirlaydi. Ovidiy bu asarida mifologik qahramonlarning hayoti va ishqiy qayg'ularini real va shaxsiy yondashuv orqali aks ettiradi. Uning bu topilmasi ishqiy elegiyani nafaqat shaxsiy, balki umuminsoniy darajaga ko'tardi.

Ovidiyning ishqiy elegiya janridagi eng mashhur asarlaridan biri yuqorida ta'kidlangan "Sevgi san'ati" ("Ars Amatoria") poemasi bo'lib, unda muhabbat munosabatlari haqida kulguli shu bilan birga muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega didaktik mazmundagi masalalar ham qalamga olinadi.

Rim elegiyasi odatda elegiya metrikasi-bir juftlikdan (distix) iborat bo'ladi. Bu birinchi misraning (geksametr) uzunligi va ikkinchi misraning (pentametr) qisqaroqligi orqali aniqlanadi.

"Sevgi san'ati" asari uch qismdan iborat bo'lib, dastlabki ikki qismda ekaklarga mahbubalarni qayerdan topish, ularning iltifotini qanday qozonish, uning ko'nglini qanday ovlash, sevgisini izhor qilish yo'llaridan tortib, maktubni qanday yozish va kim orqali uni yetkazish masalasida erkaklarga maslahatlar beradi. Umuman olganda ayollarning tabiati,

ehtirolari turlicha bo'lishini va bu holatlarda qanday yo'l tutish kerakligi haqida o'qdiradi. Asarning uchinchi qismida esa xuddi shu masalalarda ayollarga maslahatlar beradi. "Chinakam husn hammaga ham nasib bo'lavermaydi. Shu sababli xotin kishi erkaklarning ko'ziga zinhor-zinhor bepardoz ko'rinmasin. Ayollarning yuzi ayniqsa juda pardoz talab bo'ladi. Ranging toza, yuzing qirmizi bo'lmasa, upa-elik so'rmoq darkor... Savlat to'kib yurishning, xiromon qadam bosishning, g'amza bilan gapirishning, sehrli ko'z suzishning, chiroyli kulishning, hatto yoqimli yig'lashning ham jozibasi juda o'tkir bo'ladi. Umuman, har borada so'lim, zebo va yoqimli ko'rinishga tirishmoq lozim..." [2:366].

Aslida "Sevgi san'ati" poemasi shunchaki maishat ahillarining ko'ngil xushliklaridan iborat asar emas. Uning tag zamirida Rim jamiyatining axloqi yoritiladi. Amaldorlarning gladiator janglari, sirk tomosholari, teatrlari, badavlat oilalarda tashkil etiladigan maishatparstlik, ishratparastlik va shuhratparastlikning tanqidiy badiiy ifodasi hamdir. Yana shuni aytish mumkinki, Rim jamiyatining boylikka, oltin to'plashga mukkasidan ketganligining in'kosidir desak to'g'ri bo'ladi.

Ovidiy ishqiy elegiyasi nafis til, mukammal badiiy shakl va murakkab obrazlar bilan boyitilgan. U yumor, lirizm va dramatismni birlashtirib, o'quvchining diqqatini tortuvchi noyob poetik uslub yaratadi. Uning she'rlarida, ayniqsa, muallif o'z nomini kelajak avlodlarga qoldirishga bo'lgan ishonchini ko'rish mumkin.

"Men yo'q bo'lsam ham, she'rlarim yashaydi,

Har satrim orqali ovozim dunyoda barhayot bo'ladi" [3: <https://royallib.com>].

Ovidiyning "Sevgi san'ati" asari o'z zamonasida juda mashhur bo'lgan, biroq shuningdek tanqidlarga ham uchragan. Shunday bo'lsa-da, Ovidiy ishqiy elegiyasi shaxsiy hissiyotlarni nazmda ifodalashning yangi yo'nalishini belgilab berdi.

Ovidiy ishqiy elegiyalardan tashqari g'amg'in elegiyalar ham yozdi. G'amgin elegiyalar Rim elegiya janrining bir turi bo'lib, insonning g'am-anduhlari, hayotning murakkabliklari va iztiroblari haqidagi tuyg'ularni ifoda etadi. Bu janr asosan inson hayotining fojiali qirralarini aks ettirishga qaratilgan bo'lib, yozuvchi shaxsiy dardu alamlarini ochiq bayon qilish uchun maydon yaratadi. G'amgin elegiyalar yozishiga sabab milodiy 8- yilda hukmdor Avgust shoir Ovidiyi Rimdan surgun qiladi. U Qora dengiz sohilidagi Tomisga hozirgi Ruminiyaning Konstansa shahriga yuborildi.

Surgunning aniq sabablari ma'lum emas, biroq olimlarning taxmin qilishicha Ovidiyning "Sevgi san'ati" asaridagi siyosiy targ'ibotlari sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Surgun yillarida u o'zining "Qayg'ular" (she'riy to'plam) va "Pontdan maktublar" asarlarini yozdi. Ularda shoir o'z iztiroblari, yurtga bo'lgan sog'inchi va o'z taqdiridan shikoyatlarini bayon qilgan.

Ovidiy Qora dengiz sohilida o'zining surgun yillarini o'tkazib, milodiy 17-18 yillarda vafot etgan. U Rimga qaytishga umid qilgan bo'lsa-da, bu istagi amalga oshmagan.

Yuqoridagi g'amgin elegiyalarida Ovidiy g'am-anduhlarini davom ettiradi. Unda do'stlarga murojaat, yurtni sog'inish, o'zini tazyiqda his qilish kabi mavzular muhim o'rin tutadi. Ushbu elegiyalar o'quvchida his-tuyg'ular uyg'otadi va inson hayotining murakkab qirralarini estetik jihatdan anglashga yordam beradi.

"Men o'z yurtimdan, sevgan tog'larimdan uzoqdaman,

Qayg'u kechalari menga sherik bo'ldi,

Biroq qalbim hanuz yurtimda qolmoqda" [4: <https://royallib.com>].

Bu misralar shoirning nafaqat shaxsiy dardlarini, balki yurt va ozodlikning inson hayotidagi qadrini ham yoritib beradi.

Ovidiy shu bilan birga Rimning nafaqat markaz sifatidagi madaniy ahamiyatini, balki shoirning shaxsiy hayotidagi o'rnini ham sevgi bilan eslatib o'tadi.

“Yurtga qaytish umidim yo'q,

Lekin har tushimda uning yuksak tog'larini ko'raman” [5: <https://royallib.com>].

Bu yerda shoir yurtga qaytish orzusi orqali fojiaiviy iztiroblarni estetik darajada umumlashtiradi.

Yana bir she'rida Ovidiy, ijodini faqat iztiroblarni bayon qilish emas, balki o'zini anglash vositasi sifatida ham ko'rsatadi:

“Bizni ajratib turgan masofalarni vaqt yengib o'tar,

Biroq qalbim siz bilan bog'langan bo'lib qoladi” [6: <https://royallib.com>].

G'amg'in elegiyalarda Ovidiy inson tabiatining zaif qirralarini ochib beradi. U taqdirga qarshi qo'yilgan kichik qahramon sifatida o'ziga rahm bilan qarab, bir vaqtning o'zida o'z ijodi orqali abadiylikka erishishga intiladi. Uning she'rlarida, ayniqsa, muallif o'z nomini kelajak avlodlarga qoldirishga bo'lgan ishonchni ko'rish mumkin.

Xullas Ovidiy elegiyalari keyingi Yevropa adabiyotida lirik janrlarning shakllanishiga kuchli ta'sir o'tkazgan. Elegiyaning bu nozik va nafis shakli insoniy his-tuyg'ularni chuqur o'rganishga yo'l ochib berdi.

Ovidiyning “Metamorfozalar” (“Evrilish”) asari jahon adabiyoti rivojiga qo'shgan ulkan ma'naviy xazinasidir. “Metamorfozalar” (lot. *Metamorphōseōs*) milodiy 8 yilgacha, ya'ni surgundan oldin yozib tugallanganligi ilmda bor. “Metamorfozalar” Ovidiyning shoh asari bo'lib, epik poemalaridan biri hisoblanadi. Bu asar asosan dunyoning yaratilishi va turli mifologik qahramonlarning metamorfozasi (evrilishi)-ya'ni, o'zgarishlari haqida hikoya qiladi. Asar 15 kitobdan iborat bo'lib, 250dan ortiq turli hikoyalarni o'zida jamlagan. Asar ichki aloqalar bilan bog'langan hikoyalardan iborat bo'lib, ular bir-birini to'ldirib boradi. Har bir metamorfoza keyingi voqealar uchun asos yaratadi. Bu ichki bog'lanishga ega bo'lgan hikoyalar insonlarning hayvonlarga, daraxtlarga, tog'larga yoki boshqa tabiat hodisalariga aylanish jarayonlari orqali insoniyatning tabiat bilan uyg'unligini badiiy-estetik ifoda etadi.

Ovidiy asarni quyidagicha izohlaydi: “Men she'r orqali metamorfozalar haqida hikoya qilaman, bu hikoyalar bir tizimda bog'lanadi” [7:155]. Bu poema nafaqat epik she'riyatning estetik namunasi, balki uning ma'naviy boyligi bilan ham tanilgan.

“Metamorfozalar” asari mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asar dunyoning yaratilish tarixi bilan boshlanadi. Ovidiy avval boshda Xaos – tartibsiz moddalar to'dasi mavjud bo'lganini ta'kidlaydi. Keyin esa tabiat kuchlari orasida tartib o'rnatiladi: Yer, osmon, suv va olov alohida ajratiladi. Birinchi metamorfoza insonning yaratilishi bilan bog'liq-inson tabiatning bir qismi sifatida hayotga keladi.

Ovidiy “Metamorfozalar” asarida dunyo tarixini to'rt asosiy davrga ajratadi: Oltin, Kumush, Bronza va Temir asrlarga. Oltin asrda insonlar ma'naviy poklikda yashagan bo'lsa, Temir asrda axloqsizlik va jinoyatlar keng tarqalgan. Bu davrlarning metamorfoza jarayonlari insoniyatning ma'naviy va ijtimoiy holatiga bog'liq ekanligiga urg'u beradi.

Asar mifologik qahramonlar va ularning o'zgarishlari (evrilishlari) haqida hikoya qiladi. Ya'ni, hikoyalarning keng qamrovli antologiyasi taqdim etiladi. Ulardan ba'zilariga to'xtalib o'tsak. “Araxna” hikoyasida Faxrli to'quvchi Araxna Afina bilan musobaqada yengilganidan so'ng, uning jazosi sifatida o'rgimchakka aylantiriladi. “Narsiss” hikoyasida, Narsiss o'z qiyofasiga oshiq bo'lib, so'ngra chiroyli gulga aylanadi. Bu hikoya insonning o'z-o'ziga maxliyo bo'lishi, o'ziga yuksak baho berishi, kibrlanib ketishi natijasida, alal oqibat

falokatga uchrashi haqidagi hikoyadir. “Dafna va Apollon” hikoyasida Apollon Dafnani ta’qib qilganda, u daraxtga aylantiriladi. Bu hikoyada muhabbat, ozodlik, erk mavzulari o’z badiiy ifodasini topadi. “Fayeton” hikoyasida esa Fayeton o’z otasi Geliosning qo’shinini boshqarishga harakat qiladi, biroq tajribasizlik va yoshligi tufayli qo’shin nazoratini yo’qotib, halokatga uchraydi.

Ovidiyning badiiy mahorati shundaki, “Metamorfozalar” asarida mifologiya bilan real hayot uyg’unligini ta’minlaydi. Ya’ni inson fe’l-atvorining ijtimoiy va axloqiy jihatlari miflar orqali tanqid qilinadi. Bundan tashqari, uning poemasida tasviriy vositalardan ham unimli foydalanganligini Ingliz olimi Gallin quyidagicha baholaydi: “Ovidiy o’z she’rlarida boy va tasviriy tilni qo’llaydi. Uning metaforalari inson va tabiat o’rtasidagi chuqur aloqalarni yoritadi. Masalan, daraxtga aylangan Dafna yoki gulga aylangan Narsiss inson va tabiat o’rtasidagi vizual va ma’naviy bog’liqlikni ko’rsatadi”[8:34]. Bu fikrdan kelib chiqib aytadigan bo’lsak, “Metamorfozalar” asarini inson tabiati va ijtimoiy munosabatlarning universal modelini yaratuvchi asar deb ta’riflash mumkin bo’ladi.

Ovidiyning “Metamorfozalar” asariga Oksford universiteti olimlaridan yana biri, Piter Ye. Noks: ““Metamorfozalar” Yevropaning Renessans davri madaniyatiga katta ta’sir ko’rsatgan. Ovidiyning inson va tabiat o’rtasidagi munosabatlarga bo’lgan qarashi falsafiy tahlil uchun katta ahamiyatga ega” [9:112].

Ovidiyning “Metamorfozalar” asari faqatgina miflarning kelib chiqishi haqida hikoya qilmasligini mana bu olimni fikri ham tasdiqlaydi: ““Metamorfozalar” faqatgina miflarni qayta hikoya qilmaydi, balki ularni ijtimoiy, madaniy va falsafiy kontekstda qayta shakllantiradi. Asardagi har bir hikoya inson ruhiyatining o’ziga xos bir jihatini ochib beradi”[10:197].

Ovidiyning bu asari o’zida katta ijtimoiy, siyosiy va madaniy fikrlarni ifodalashi bilan birga yuksak falsafiy g’oyalarni ham aks ettiradi. Ya’ni, asardagi “metamorfoza” tushunchasi inson fe’l-atvorining doimiy o’zgaruvchanligini falsafiy jihatdan yoritib beradi va insoniyatning o’zgarishga moyilligi hamda tabiatning bir bo’lagi sifatidagi doimiy harakatini tushunish uchun asos bo’ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Ovidiyning ishqiy va g’amgin elegiyalari elegiya janrini yuqori pog’onaga ko’tardi. Uning asarlari inson muhabbati, quvonchi, iztiroblari va qayg’ularini nafis va chuqur estetik tarzda yoritib berdi. Bu asarlar nafaqat uning shaxsiy iztiroblarini aks ettiradi, balki jahon adabiyotida inson ruhiyatining abadiy qirralarini yorituvchi bebaho madaniy meros sifatida o’rin egallaydi. Uning “Metamorfozalar” asari qadimgi mifologiyani inson ruhiyatiga moslashgan ko’rinishida taqdim etadi. U inson tabiati, tarixiy voqealar va tabiatning o’zaro bog’liqligini chuqur tafakkur bilan tushuntirib, uni adabiyotning yorqin durdonasiga aylantirdi. Asarning umuminsoniy mazmuni, poetik uslubi va falsafiy yo’nalishi uni hamon dolzarb qiladi va turli davrlardagi ijodkorlarga ilhom manbai bo’lib xizmat qilishiga asos bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. – T.: “O’qituvchi”, 1975. – B.358.
2. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. – T.: “O’qituvchi”, 1975. – B.366.
3. https://royallib.com/book/nazon_publiy_ovidiy/nauka_lyubvi.html. Murojaat vaqti. 18.01.2025.

4. https://royallib.com/book/nazon_publiy_ovidiy/nauka_lyubvi.html. Murojaat vaqti.
18.01.2025.
5. https://royallib.com/book/nazon_publiy_ovidiy/nauka_lyubvi.html. Murojaat vaqti.
18.01.2025.
6. https://royallib.com/book/nazon_publiy_ovidiy/nauka_lyubvi.html. Murojaat vaqti.
18.01.2025.
7. Oybek. Antik adabiyotdan xrestomatiya. Rim adabiyoti. – T.: “Fan”, 1980. – B.155.
8. Gallin C. Universal Models in Ovid's Metamorphoses. “Cambridge university press”. 1998. p
34.
9. Peter E. Knox. “Ovid's Metamorphoses and the Traditions of Augustan Poetry”. “Cambridge
university press”. 1986. p 112.
10. Barchiesi A. Frontmatter. In: Kenney EJ, Reed JD, eds. A Commentary on Ovid's
Metamorphoses. “Cambridge University Press”; 2024. p 197.